

KITOB TUMANI AGROSANOAT MAJMUASINI RIVOJLANTITISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Ubaydullayev Ulug‘bek Sirob o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Universiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti 70530201 –

Geografiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Ubaydullayevulugbek597@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Kitob tumanida agrosanoat majmuasini rivojlantirishning hozirgi holati, mavjud muammolari hamda istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilishdagi asosiy muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo‘llari taklif etilgan. Shuningdek Kitob tumanida 2024-yilda 4 117 mlrd so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilgan bo‘lib maqolada agrosanoat majmuasining Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotiga ko‘rsatadigan ta‘siri yoritilib, hududiy sanoat salohiyatini oshirish, bandlikni ta‘minlash, eksport imkoniyatlarini kengaytirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Maqolada keltirilgan taklif va xulosalar Qashqadaryo viloyatida agrosanoat majmuasini barqaror rivojlantirishga hamda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: agrosanoat majmuasi, Kitob tumani, Qashqadaryo viloyati, qishloq xo‘jaligi, qayta ishlash sanoati, hududiy rivojlanish, investitsiya.

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА КИТОБСКОГО РАЙОНА

Аннотация

В данной статье анализируется текущее состояние, существующие проблемы и перспективы развития агропромышленного комплекса Китобского района. В ходе исследования были выявлены основные проблемы в выращивании, переработке, хранении и сбыте сельскохозяйственной продукции и предложены пути их устранения. Также в 2024 году в Китобском районе было выращено 4 117 миллиардов сумов сельскохозяйственной продукции. В статье подчеркивается влияние агропромышленного комплекса на экономику Кашкадарьинской области и обосновывается его роль в повышении регионального промышленного потенциала, обеспечении занятости и расширении экспортных возможностей. Представленные в статье предложения и выводы служат устойчивому развитию агропромышленного комплекса Кашкадарьинской области и ускорению социально-экономического развития региона.

Ключевые слова: агропромышленный комплекс, Китабский район, Кашкадарьинская область, сельское хозяйство, перерабатывающая промышленность, региональное развитие, инвестиции.

PROBLEMS AND PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF THE AGROINDUSTRIAL COMPLEX OF KITOB DISTRICT

Annotation

This article analyzes the current state, existing problems and prospects of the development of the agroindustrial complex in Kitob district. During the research process, the main problems in the cultivation, processing, storage and sale of agricultural products were identified and ways to eliminate them were proposed. Also, in 2024, 4,117 billion soums of agricultural products were grown in Kitob

district. The article highlights the impact of the agroindustrial complex on the economy of the Kashkadarya region, and justifies its role in increasing regional industrial potential, providing employment, and expanding export opportunities. The proposals and conclusions presented in the article serve the sustainable development of the agroindustrial complex in Kashkadarya region and accelerating the socio-economic development of the region.

Keywords: agro-industrial complex, Kitab district, Kashkadarya region, agriculture, processing industry, regional development, investment.

Kirish: Hozirgi globalashuv sharoitida hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining o'zaro uzviy bog'liqligiga asoslangan agrosanoat majmuasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida hududiy ishlab chiqarish majmualarini rivojlantirish, ularning joylashuvi va samaradorligini oshirish masalalari dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada A. Soliyev o'z tadqiqotlarida hududiy ishlab chiqarish tizimlarining shakllanishi va rivojlanishida tabiiy-resurs salohiyati, mehnat resurslari hamda ishlab chiqarish infratuzilmasining muhim rolini alohida ta'kidlaydi [1].

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, uning sanoat bilan integratsiyalashuvi orqali agrosanoat majmuasi shakllanadi. A. Soliyevning "O'zbekiston geografiyasi" darsligida ta'kidlanganidek, mamlakat hududlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan bir qatorda ularni qayta ishlash, saqlash va iste'molchiga yetkazib berish jarayonlarini yagona tizimda rivojlantirish hududiy iqtisodiyot samaradorligini oshiradi [2].

Shu jihatdan agrosanoat majmuasini hududiy yondashuv asosida o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Qashqadaryo viloyati tabiiy-iqlim sharoiti, sug'oriladigan yerlar, mehnat resurslari hamda tarixan shakllangan agrar yo'nalishi bilan respublikaning muhim qishloq xo'jaligi hududlaridan biridir. Viloyat tarkibidagi Kitob tumani esa tog'oldi va vodiy hududlarining uyg'unligi, dehqonchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik tarmoqlarining rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Biroq hududda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlash darajasi hali yetarli emasligi agrosanoat majmuasining to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda

A. Soliyevning ilmiy qarashlariga ko'ra, agrosanoat majmuasining samarali faoliyati hududiy mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyasiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, Kitob tumani agrosanoat majmuasining rivojlanish muammolarini tahlil qilish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini belgilash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi jihatdan tahlil qilish, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy muammolarni aniqlash hamda Qashqadaryo viloyati miqyosida agrosanoat majmuasini rivojlantirish istiqbollari ilmiy asoslashdan iboratdir. Tadqiqot natijalari hududiy rivojlanish dasturlarini takomillashtirishda va agrosanoat siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Agrosanoat tarmog'ining o'sib borishi qishloq xo'jaligi tarmoqlari bilan bevosita bog'liq. Kitob tumani agrosanoat majmuasining shakllanishi va rivojlanishi, avvalo, hududning tabiiy-iqlim sharoitlari, relyef tuzilishi hamda tarixan shakllangan xo'jalik yuritish an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Tumanning tog' oldi va adir mintaqalardan iborat bo'lishi yirik paxtachilikka emas, balki bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va chorvachilik tarmoqlarining ustuvor rivojlanishiga zamin yaratgan. Ushbu tabiiy omillar ta'sirida Kitob tumanida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi asosan intensiv yo'nalishda rivojlanib bormoqda.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-1

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010-yilda 2 912,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 39 924,2 mlrd so'mgacha yetgan. Ya'ni, o'tgan davr mobaynida viloyat bo'yicha agrar ishlab chiqarish hajmi qariyb 13,7 barobar oshgan. Ushbu jarayonda Kitob tumani muhim o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Jumladan, 2010-yilda tuman bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari hajmi 265,6 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 3 425,4 mlrd so'mgacha oshgan. Bu esa 12,9 barobar o'sishni anglatib, tumanning viloyat agrar salohiyatidagi ulushi 8,6 foizga teng ekanini ko'rsatadi.

Tuman hududida mavjud yer resurslaridan foydalanish darajasi ham agrosanoat majmuasi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. 2024-yil holatiga ko'ra, Kitob tumani hududining umumiy yer maydoni 174,3 ming gektarni tashkil etib, shundan 73,1 ming gektari qishloq xo'jaligi va aholi xo'jaliklari uchun foydalaniladi. Ushbu yerlarning 20,3 ming gektari haydalma yerlar bo'lib, qolgan qismi ko'p yillik bog'lar, tokzorlar va yaylovlarga to'g'ri keladi. Tumanda daraxtzorlar egallagan maydon 8,8 ming gektardan ortiq bo'lib, bu ko'rsatkich bog'dorchilik va mevalilikning rivojlanganidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda Kitob tumanida qishloq xo'jaligida suv va yer resurslaridan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tomchilatib sug'orish texnologiyalarining joriy etilishi, Qashqadaryo va Oqsuv daryolaridan olinadigan kanallarning betonlashtirilishi hamda Hisorak suv ombori orqali suv ta'minotining yaxshilanishi hosildorlikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada ekin maydonlari qisqargan bo'lishiga qaramay, yerdan olinayotgan mahsulot hajmi barqaror ravishda ortib bormoqda.

1-jadval


Tumanda yetishtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sishi

Ko'rsatkichlar	o'lchov birligi	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2024 yil
Kartoshka	tonna	32123	31028	31851	32647
Sabzavot	tonna	62948	61603	69094	74285
Poliz	tonna	6057	5948	7130	9696
Meva	tonna	27325	29548	32198	35775
Uzum	tonna	37035	42122	43776	48366
Don	tonna	27310	29092	29060	31580
Go'sht	tonna	18912	19256	20097	20366
Sut	tonna	106922	113317	114817	116371
Tuxum	ming dona	36856	30082	28596	28949
Jun	tonna	233	233,0	244	278
Qorako'leri	dona	-	43,0	8	2
Pilla	tonna	250,2	267,1	286,3	306,1

Kitob tumanida yetishtiriladigan asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida kartoshka, sabzavot, poliz, meva va uzum mahsulotlari yetakchi o'rinni egallaydi. 2020–2024-yillar oralig'ida sabzavot yetishtirish hajmi 62,9 ming tonnadan 74,2 ming tonnagacha, poliz mahsulotlari 6,0 ming tonnadan 9,7 ming tonnagacha, meva yetishtirish esa 27,3 ming tonnadan 35,7 ming tonnagacha oshgan. Ayniqsa uzumchilik tarmog'ida sezilarli o'sish kuzatilib, 2024-yilda 48,3 ming tonna uzum yetishtirilgan. Bu Kitob tumanining uzumchilik bo'yicha viloyatda yetakchi hududlardan biri ekanini

tasdiqlaydi. Chorvachilik tarmog‘i ham tuman agrosanoat majmuasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. 2020-yilda go‘sh t ishlab chiqarish hajmi 18,9 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 20,3 ming tonnaga yetgan. Sut ishlab chiqarish hajmi esa 106,9 ming tonnadan 116,3 ming tonnagacha oshgan. Ushbu o‘shish chorvachilikda mahsuldorlikning oshishi, naslchilik ishlarining yaxshilanishi hamda yem-xashak bazasining mustahkamlanishi bilan izohlanadi. Agrosanoat majmuasining samaradorligini oshirishda qayta ishlash sanoati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kitob tumanida meva-sabzavotni qayta ishlash, un va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bu korxonalar qishloq xo‘jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash orqali qo‘shimcha qiymat yaratish, aholi bandligini ta‘minlash va tuman iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, Kitob tumani agrosanoat majmuasi so‘nggi yillarda barqaror rivojlanish bosqichiga ko‘tarilib, Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida muhim hududlardan biriga aylangan. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hamda qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish tumanning kelgusidagi agrar salohiyatini yanada oshirish imkonini bermoqda.



1-rasm. Kitob tumanida yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmining o‘shishi (ming tonna).

2010-yilda Kitob tumanining viloyat sanoatidagi ulushi atigi 0,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil yakuniga kelib bu ko‘rsatkich 4,7 foizga, 2025-yilning birinchi yarmida esa 3,9 foizga yetgan. Bu o‘shish so‘nggi yillarda tumanda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, sanoat infratuzilmasining modernizatsiyasi, hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik va o‘rta korxonalar faoliyati bilan izohlanadi. Kitob tumanida ishlab chiqarishning asosiy yo‘nalishlari sifatida oziq-ovqat va yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish, hamda agrosanoat korxonalari yetakchi o‘rin tutadi. Hududda meva-sabzavotni qayta ishlash, un mahsulotlari ishlab chiqarish, sut va go‘sh t mahsulotlarini tayyorlash bo‘yicha korxonalar

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-1

faoliyat yuritmoqda. Bular orasida “Kitob Agro Food”, “Do‘ng Don Maxsulotlari”, “Zarafshon Qurilish Materiallari” kabi korxonalar tuman sanoat salohiyatining o‘shida muhim rol o‘ynamoqda. Shuningdek, so‘nggi yillarda Kitob tumanida investitsiya loyihalari doirasida yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi. Xususan, energiya tejevchi texnologiyalar, kichik mexanika ustaxonalari, plastmassa va qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqarish sohalari rivojlanmoqda. Bu esa tuman iqtisodiyotining diversifikatsiyasiga zamin yaratmoqda.

Kitob tumanining sanoat tarmog‘i viloyat miqyosida nisbatan kichik ulushga ega bo‘lsa-da, uning o‘shish sur‘atlari yuqori. Tuman sanoati 2010–2024-yillar oralig‘ida qariyb 9 baravar o‘shish ko‘rsatkichiga erishgan. Bu esa hududda qishloq xo‘jaligi xomashyosiga asoslangan qayta ishlash tarmoqlarining shakllanayotganini, aholi bandligi va daromadlarining ortishiga hissa qo‘shayotganini anglatadi. Umuman olganda, Qashqadaryo viloyati sanoati tarkibida Kitob tumanining o‘rni yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. Tuman sanoatining rivojlanishi nafaqat viloyat miqyosida, balki butun janubiy O‘zbekiston iqtisodiy hududida ham barqaror va samarali sanoat tizimi shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlillar natijasida Kitob tumani agrosanoat majmuasi Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi yetakchi tarmoqlardan biri ekanligi aniqlandi. Tumanning tabiiy-iqlim sharoiti, relyef xususiyatlari hamda tarixan shakllangan xo‘jalik yuritish tajribasi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining asosan bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va chorvachilik yo‘nalishlarida rivojlanishiga zamin yaratgan. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan agrar islohotlar natijasida tuman qishloq xo‘jaligida intensiv rivojlanish bosqichiga o‘tilib, ishlab chiqarish hajmi va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari barqaror oshib bormoqda.

Umuman olganda, Kitob tumani agrosanoat majmuasi barqaror rivojlanish salohiyatiga ega bo‘lib, mavjud resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali kelgusida yanada yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega. Mazkur yo‘nalishlarda olib boriladigan chora-tadbirlar tumanning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlash bilan bir qatorda, Qashqadaryo viloyatining agrar salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Soliyev A. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari. – T., 1995.
2. Soliyev A.S. O‘zbekiston geografiyasi (O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) / Darslik.- T.: Universitet, 2014. – 404 b.
3. Qodirov R.B. Aholi bandligi va uning mintaqaviy xususiyatlari // O‘zbekiston Yevrosiyo makonida: geografiya, geoiqtisodiyot, geokologiya. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T., 2017. – B. 213-216.
4. Qurbonov Sh. Qishloq tumanlarining iqtisodiy salohiyati va ularning ixtisoslashuvi // O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 36 - jild. – T., 2010. - B.112-116.
5. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari.